

**YAKUNIY NUQSONI BO'LGAN BEMORLARDA OLIB QO'YLADIGAN TISH PROTEZLARINING
YUZALARIDA GIGIYENA HOLATINI ANIQLASHGA KLINIK MISOLLAR**

Jumayev A.X., Akbarov N.B.,

Buxoro davlat tibbiyot instituti, Toshkent davlat stomatologiya instituti.

✓ *Rezume*

Zamonaviy tasavvurlarga ko'ra, karies va parodont kasalligi kabi asosiy stomatologik kasalliklarning etiologiyasida mikrob omili muhim rolni o'yinaydi. Mikroorganizmlarning patogen ta'sirini ularda tish toshmasi hosil bo'lishi bilan bog'lashadi. Mazkur holatda og'iz bo'shlig'ining qoniqarsiz gigiyenasi tish toshmasining shakllanishi va rivojlanishiga olib keluvchi asosiy omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tish qarashi, mikrob omil, mikroorganizm aloqalari.

**КЛИНИЧЕСКИЕ ПРИМЕРЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГИГИЕНИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ПОВЕРХНОСТИ
СЪЕМНЫХ ЗУБНЫХ ПРОТЕЗОВ У БОЛЬНЫХ С КОНЦЕВЫМ ДЕФЕКТОМ**

Zhumaev A.X., Akbarov A.N.,

Бухарский государственный медицинский институт,
Ташкентский государственный стоматологический институт.

✓ *Резюме*

Согласно современным представлениям, важнейшую роль в этиологии основных стоматологических заболеваний, таких как кариес и болезни пародонта, играет микробный фактор. Патогенное действие микроорганизмов связывают с образованием или зубной бляшки. Неудовлетворительная гигиена полости рта в данном случае рассматривается как основной фактор, способствующий формированию и развитию зубной бляшки.

Ключевые слова: Зубной бляшки, микробный фактор, микроорганизмы связывают.

**CLINICAL EXAMPLES OF DETERMINING THE HYGIENIC CONDITION OF THE SURFACE
OF REMOVABLE DENTAL DENTALS IN PATIENTS WITH END DEFECT**

Zhumaev A.Kh., Akbarov A.N.,

Bukhara State Medical Institute, Tashkent State Dental Institute.

✓ *Resume*

According to modern concepts, the microbial factor plays the most important role in the etiology of major dental diseases, such as caries and periodontal disease. The pathogenic effect of microorganisms is associated with the formation of dental plaque. Poor oral hygiene in this case is considered as the main factor contributing to the formation and development of dental plaque.

Key words: Dental plaque, microbial factor, microorganisms bind.

Dolzarbli

Olib qo'yiladigan tish protezlarining yuzalarida gigiyena holatini aniqlash tibbiyot, aynan ortopedik stomatologiyaga tegishli usul hisoblanadi va to'liq olib qo'yiladigan tish protezlaridan foydalanuvchi shaxslarning og'iz bo'shlig'ida gigiyena darajasini baholash uchun mo'ljallangan.

Dastlabki klinik holatning xarakteristikasi, davolash rejasini tuzish, bemorni og'iz bo'shlig'ini to'g'ri parvarishlashga rag'batlantirish, o'tkaziladigan davolash-profilaktika choralarining samaradorligini aniqlash bemorning og'iz bo'shlig'ida gigiyena holatini ochiq aks ettiruvchi obyektiv metodlarni talab qiladi.

Hozirgi kunda barcha yosh guruqlarida, xususan tish protezlaridan foydalanuvchi shaxslarda gigiyena indekslaridan foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar mavjud emas [1.3]. Og'iz bo'shlig'ida to'g'ri, ratsional va yaxshi tashkil qilingan gigiyena ko'plab stomatologik kasalliklarning rivojlanishini oldini olishi yoki ularni boshlang'ich bosqichda to'xtatishi mumkin, shuning uchun gigiyenik holat alohida e'tibor va maxsus yondashuvni talab qiladi.

Hozirgi kunda tish karashining maydoni, qalinligi va vaznini hamda fizik, kimyoviy va mikrobiologik para-

metrlarni e'tiborga oluvchi gigiyena indekslarining to'rt guruhni mayjud.

T.M. Marthaler va hammallif. (1961), R. Caldwell va hammallif. (1970) tomonidan taklif qilingan, tish toshmasining vaznnini o'lchash bilan bog'liq indekslar texnik jihatdan qiyin va ko'p mehnat talab qiladi, bu ulardan klinik sharoitda foydalanishni cheklaydi[2.6].

Tishning har to'rt milk sohasida tish toshmasining qalinligini aniqlashga asoslangan J. Silness (1964) va H. Loe (1967) indeksi bahosining subyektiviligi va hisoblarning murakkabligi bilan farq qiladi, bu shuningdek uni amaliyotda qo'llashga to'sqinlik qiladi.

Hozirgi kungacha ma'lum bo'lgan gigiyena indekslarining asosiy guruhi tish yuzasida tish toshmasining maydonini aniqlashga asoslangan - bu S. Ramfjord (1956), R. Shick, M.M. Ash (1961), I.M. Navy, E. Quigley, I. Hein (1962), Podshadley, Haley (1968), R. Stallard (1969), S. Turesky (1970), Yu.A. Fedorov, V.V. Volodkina (1971) tomonidan taklif qilingan indekslar [8.9.11]. Ushbu indekslar yordamida og'iz bo'shlig'ida gigiyena indeksi har bir tish ko'rsatkichlarining summasini tishlarning soniga bo'linishi orqali aniqlanadi. Ushbu indekslarning kamchiligi ularning subyektivligida va har bir yuza uchun ballni

aniqlashning murakkabligida hisoblanadi. Oltita tish yoki butun tish qatorining qiymatlari yig'indisini hisoblash, keyin esa bu summani tishlarning soniga bo'lish ma'lum vaqt egallaydi va sxematik yozuvlarni talab qiladi, bu stomatologik bemorning ambulator kartasi ko'zda tutmaydi.

Bugungi kunda eng obyektiv indeks Green, Wermillion (1964) taklif qilgan - Oral Hygien Indices - Simplified (OHI-S) og'iz bo'shlig'i indeksi hisoblanadi. U tish karashi, tish toshining indeksi va umumiyl indeksni aniqlash imkonini beradi, lekin ko'pincha faqat tish karashining indeksidan foydalaniadi. Indeksni aniqlash uchun yuqori molyarlarning vestibulyar yuzasi, markaziy yuqori va pastki kesuvchilar hamda pastki molyarlarning til yuzasi o'rganiladi. Tish yuzasida tish karashining miqdori uch balli tizimda baholanadi [5.7.9]. Og'iz bo'shlig'ida gigiyenaning soddalashtirilgan indeksi har bir tish qiymatlarining summasini tishlar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Tish karashining ko'rsatkichlari bo'yicha baholash mezonlari: 0-0,6 - og'iz bo'shlig'ida gigiyenaning yaxshi darajasi; 0,7-1,6 - qoniqarli; 1,7-2,5 - qoniqarsiz; 2,6-3,0 - yomon.

OHI-S og'iz bo'shlig'ida gigiyena indeksi ham ilmiy tadqiqotlar, ham kundalik stomatologik amaliyotda keng qo'llanilishiga qaramasdan, bizning fikrimizcha, u qator kamchiliklarga ega:

- tish ajralmalari faqat oltita tishda aniqlanadi;
- tish karashi va tish toshining miqdorini vestibulyar yoki oral yuzaning o'lchamiga nisbatan baholash subyektiv;
- indeksni hisoblash uchun qo'shimcha vaqt va kalkulyator zarur, buning har doim ham imkoni yo'q va stomatolog qabulida noqulay;
- o'nlik hissada to'rt xonali sonlardan iborat darajalarda ifodalangan baho mezonlarini eslab qolish qiyin va o'qish qiyin;
- og'iz bo'shlig'ida gigiyenaning "qoniqarsiz" va "yomon" darajasi o'rtaida amaliy farq mavjud emas;
- baho mezonlari og'iz bo'shlig'ida haqiqiy gigiyena holatini aks ettirmaydi.

Ko'priksimon protezlarga ega bemorlarda tish karashida ajralmalarni aniqlash usuli ma'lum, u 5 ballik shkala bo'yicha rangining intensivligi bo'yicha tish karashining miqdorini aniqlaydi va ko'priksimon protez 0,1% rodamin 6J aralashmasi bilan bo'yalsishi, tish ajralmalarining miqdori esa 300-400 nm ultrabinafsha rangli spektr yordamida aniqlanishi bilan farq qiladi (10.11.2006-yildan 2286719-tonli RF patenti). Texnika darajasidan tishlar umuman bo'lmaganida olib qo'yiladigan protezlarning gigiyena holatini baholash metodi ma'lum (S.S Jeganathan, K.T. Thong, V. Chan, M.M. Singh A climically viable index for quantifying denture plaque // Quintessence International (Berline), 1996, Vol. 27, №8, P. 569-573), u 1 daqiqa davomida olib qo'yiladigan protezning ichki yuzasini eritrozin aralashmasi bilan bo'yashdan iborat [6.12]. Keyin bo'yoq yuvib tashlanadi, tish protezining yuzasi quritiladi va tish protezi yuzasi vizual baholanadi. Tish protezida gigiyena holatinining darajasini baholash tish protezi yuzasining bo'yagan sohalarining o'lchamini tish protezini ichki yuzasining umumiyl o'lchamiga nisbatiga bog'liq aniqlanadi.

Bu metodning kamchiligi tish protezini ichki yuzasining faqat bo'yagan sohalarini vizual baholanishi va buning oqibatida mazkur metodda axborot kamligi sababidan olib qo'yiladigan tish protezlarida gigiyena holatinining darajasini baholashda katta noaniqlik hisoblanadi.

Tish protezining ichki yuzasini bo'yash, grafik setka surish, suratga olib va tish protezida gigiyena holatinining

indeksini aniqlashni o'z ichiga oluvchi, grafik setkani hosil qilish uchun tish protezining ichki yuzasini teng segmentlarga ajratish imkonini beruvchi shablonlardan foydalanilishi bilan farq qiluvchi, tishlar qisman bo'lmaganida olib qo'yiladigan tish protezlarida gigiyena holatini aniqlash usuli ma'lum. Tish protezining ichki yuzasi yuqori jag' tish protezlar uchun fotokamerani tanglay chokining o'rtasi bo'yicha yuqori jag' uzdechkasi va tish protezining distal cheti o'rtasidagi masofaning markaziga fokus markazini o'rnatgan holda, pastki jag' tish protezlar uchun pastki jag' uzdechkalarini va protezning ort cheti o'rtasidagi masofaning markazida, markaziy kesuvchilar o'rtasidan o'tkazilgan chiziqqa fokus o'rnatgan holda suratga olinadi. Har bir segmentda karashning bo'yalish bahosi 0 dan 4 gacha 4 balli sxema bo'yicha o'tkaziladi, bunda 0 ball bo'yoq bo'lmaganida, 1 ball - sezilmas bo'yoq bo'lganida, 2 ball - segment yuzasi maydonining yarmidan kam bo'yaganida, 3 ball - segment yuzasi maydonining yarmidan ko'pi bo'yaganida, 4 ball - butun segment yuzasi bo'yaganida beriladi. Gigiyen indeksining qiymati belgilangan mezonlardan foydalanib, formula bo'yicha hisoblanadi. Gigiyen indeksi 0 dan 1,5 gacha baholanganda, gigiyena holati a'llo sifatida baholanadi, 1,6 dan 2,5 gacha - qoniqarli, 2,6 dan 4,0 gacha - qoniqarsiz daraja.

Qator mualliflar olib qo'yiladigan tish protezlarining gigiyena holatini baholash uchun E. Ambjornsen tomonidan 1982-yilda ishlab chiqilgan, ma'lum sohalarda karash miqdorini baholash metodikasidan foydalanishadi.

Yuqori jag' olib qo'yiladigan protezning ichki yuzasida 5 sohada karash ro'yxatga olinadi; 1. Kesuvchi g'udda sohasida; 2. Tanglay chokidan 1 sm lateralroq joylashgan ikki sohada. Bu sohalar yuqori lab uzdechksidan tanglay choki bo'ylab protezning distal chegarasigacha protez chizig'idan, mazkur chiziqning markazi bo'yicha o'tgan perpendikulyar bilan ajratgan holda o'rta chiziq o'tkazish yo'li bilan aniqlanadi. Har bir soha 1 sm diametrlı doira bilan cheklangan va taxminan 1,4, 2,4, 3 mavjud bo'lmagan tishlar sohasida; Ikkala yuqori jag' bo'rtiqlarning eng uzoq sohalarida taxminan 1,7 va 2,7 mavjud bo'lmagan tishlar sohasida joylashgan. Protezning o'zida mavjud bo'lgan karash miqdori vizual va stomatologik uskuna yordamida baholanadi. Tadqiqot natijalari har bir sektorda koeffitsiyentlarni qo'shish metodi bilan ball tizimi bo'yicha baholanadi (Trezubov V.V., Sapronova O.N., Kusevskiy L.Ya., Privalov A.V. Turli tuzilishga ega tish protezlar va apparatlarida gigiyena holatini indeks baholash. Stomatologiya instituti. Tom. 4, Raqam. 49, 2010, "Меди издательство" MCHJ. C. - 46-47.)

Biroq, karashning miqdorli vizual bahosi noaniq hisoblanadi, shu sababli, tish protezlarida gigiyena holatinining bahosi - ishonchhsiz.

Texnik ahamiyati bo'yicha eng yaqin usul axborot manbalarida ta'riflangan, to'liq olib qo'yiladigan protezlardan foydalanuvchi katta yoshli bemorlarning og'iz bo'shlig'ida gigiyena holatini baholash - M. V. Malik, Yu. S. Serikova, A. A. Stupnikov, M. I. Voropayeva. Patki jag'da implantatlarga tayanadigan olib qo'yiladigan qoplama protezlar va to'liq olib qo'yiladigan protezlardan foydalanuvchi katta yoshli bemorlarning og'iz bo'shlig'ida gigiyena holatinining solishtirma bahosi [10.11].

Bu usul tishlar qisman mavjud bo'lmaganida olib qo'yiladigan tish protezlarining ichki yuzasida tish karashini aniqlash uchun metilen ko'k aralashmasi bilan bo'yash, 5 soniya davomida suv bilan chayish va 10 soniya davomida havo oqimi bilan quritishdan iborat. Bo'yagan

protez shartli ravishda 3 segmentga ajratiladi: frontal va yon; ularning chegarasi tish protezida qoziqtish o'rtasidan o'tkazilgan chiziq hisoblanadi. Protezning yuzasida tish karashining miqdori quyidagi mezonlar bo'yicha har bir segmentda baholandi: 0 - bo'yoq yo'q; 1 - sezilmash darajada bo'yangan; 2 - segment yuzasi maydonining yarmidan kami bo'yangan; 3 - segment yuzasi maydonining yarmidan ortig'i bo'yangan; 4 - butun segment yuzasi bo'yangan. Keyin har bir protez uchun indeksning qiymati baholandi. Natijalarining interpretatsiyasi: 0 - 1,5 - yaxshi, 1,5 - 2,5 - qoniqarli, 2,5 - 4,0 - gigiyenaning qoniqarsiz darajasi.

Ammo bu usulning kamchiligi shuningdek tish protezini yuzasida bo'yangan sohalar miqdorining vizual baholanishi va buning oqibatida, mazkur metodning kam ma'lumot berishi sababli olib qo'yiladigan tish protezlarida gigiyena holatining darajasini baholashda noaniqlik hisoblanadi.

Shu tariqa, qo'yilgan vazifa olib qo'yiladigan tish protezlarining yuzasida gigiyena holatini aniqlashning ko'p ma'lumot beruvchi, sodda va ochiq usulini ishlab chiqish.

Qo'yilgan vazifa olib qo'yiladigan tish protezlarining yuzasida gigiyena holatini aniqlashning, olib qo'yiladigan tish protezining yuzasini chegarasi tish protezida qoziqtish o'rtasidan o'tkazilgan chiziq hisoblanuvchi frontal va yon segmentlarga ajratilishi, metilen sini aralashmasi bilan bo'yash, 5 s davomida suv bilan chayish va 10 s davomida havo oqimi bilan quritish, protezlarda gigiyena holatin

segmentlarning bo'yaganligi bo'yicha baholanishini o'z ichiga oluvchi usuli bilan hal qilinadi. Bunda olib qo'yiladigan tish protezining yuzasi quyidagi segmentlarga bo'linadi: 1 va 2 segmentlar - frontal tishlar sohasi, 3 va 4 segmentlar - chaynash tishlar sohasi, protezlarda gigiyena holati quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi: 1 daraja - 1 segmentning bo'yalishi - gigiyenaning qoniqarli darajasi, 2 daraja - 2-3 segmentning bo'yalishi - gigiyenaning o'rtacha darajasi, 3 daraja - 1, 2, 3, 4 segmentlarning bo'yalishi - gigiyenaning qoniqarsiz darajasi, 4 daraja - og'iz bo'shlig'inining shilliq qavatiga yo'nalan, olib qo'yiladigan tish protezining butun yuzasining bo'yalishi - gigiyenaning keskin darajasi.

Baholash mezonlari:

1-daraja - og'iz bo'shlig'ida gigiyenaning yaxshi darajasi (gigiyenistning maslahati talab etilmaydi);

2-daraja - og'iz bo'shlig'ida gigiyenaning qoniqarli darajasi (tishlarni tozalash metodikasini tuzatish);

3-daraja - og'iz bo'shlig'ida gigiyenaning qoniqarsiz darajasi (og'iz bo'shlig'ida gigiyena vositalari va predmetlari to'plamini tanlash bilan og'iz bo'shlig'inining gigiyenasiga o'rgatish, gigiyena darajasi nazorat qilish);

4-daraja - og'iz bo'shlig'ida gigiyenaning keskin darajasi (og'iz bo'shlig'ida gigiyenaga o'rgatish, og'iz bo'shlig'ida gigiyena vositalari va predmetlarini tanlash, gigiyena darajasini nazorat qilish, tishning qattiq to'qimalari va parodont to'qimalariga ta'sir qiluvchi davolash-profilaktika vositalarini qo'llash).

1-jadval

Soddalashtirilgan gigiyena indeksi va taklif qilingan usul yordamida og'iz bo'shlig'ida gigiyena darajasini o'rganish natijalarining taqqoslanishi

Gigiyena darajasi (OHI-S)	Natijalarining mosligi		Taklif qilingan indeks
	абс.	%	
Yaxshi	14	6,5	Yaxshi
Yaxshi	50	23,3	Qoniqarli
Yaxshi	19	8,8	Qoniqarsiz
Yaxshi	5	2,3	Keskin
Qoniqarli	0	0	Qoniqarli
Qoniqarli	60	27,9	Qoniqarsiz
Qoniqarli	16	7,4	Keskin
Qoniqarsiz	0	0	Qoniqarsiz
Qoniqarsiz	51	23,7	Keskin
Yomon	0	0	Keskin

1-misol. Stomatologik klinika parodontologiya bo'limiga bemor B. og'iz bo'shlig'ida professional gigiyena choralarini o'tkazish maqsadida murojaat qildi, yoshi 50 da.

Klinik va rentgenologik tekshiruvlardan so'ng unga - "ikkilamchi qisman adentiya bilan keskinlashgan, o'rta og'irlilikdagi tarqoq parodontit" tashxisi qo'yildi. Og'iz bo'shlig'i hamda ortopedik stomatologik konstruksiyalarda professional gigiyena choralarining dastlabki o'tkazilishini o'z ichiga oluvchi parodontitni kompleks davolash rejasi tuzildi.

Tishlar va olib qo'yiladigan ortopedik stomatologik konstruksiyalarda gigiyena holatini baholash uchun ma'lum qilingan usuldan foydalanildi.

Usul olib qo'yiladigan tish protezining chegarasi yuzasini chegarasi tish protezida qoziqtishlar o'rtasidan

o'tkazilgan chiziq hisoblanuvchi frontal va yon segmentlarga ajratish, metilen sini aralashmasi bilan bo'yash, 5 soniya davomida suv bilan chayish va 10 soniya davomida havo oqimi bilan quritishni o'z ichiga oldi. Olib qo'yiladigan tish protezining yuzasi quyidagi segmentlarga ajratildi: 1 va 2 segmentlar - frontal tishlar sohasi, 3 va 4 segmentlar - chaynash tishlari sohasi. Protezlarda gigiyena holati baholanganda 1-daraja - 1 segmentning bo'yalishi, ya'ni gigiyenaning qoniqarli darajasi aniqlandi. Og'iz bo'shlig'ida gigiyenani kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha choralar talab qilinmaydi.

2-misol. Stomatologik klinik parodontologiya bo'limiga bemor B. og'iz bo'shlig'ida professional gigiyena choralarini o'tkazish maqsadida murojaat qildi, yoshi 58 da.

Tishlar va olib qo'yiladigan ortopedik stomatologik konstruksiyalarda gigiyena holatini baholash uchun ma'lum qilingan usuldan foydalanildi.

Usul olib qo'yiladigan tish protezining chegarasi yuzasini chegarasi tish protezida qoziqtishlar o'rtasidan o'tkazilgan chiziq hisoblanuvchi frontal va yon segmentlarga ajratish, metilen sini aralashmasi bilan bo'yash, 5 soniya davomida suv bilan chayish va 10 soniya davomida havo oqimi bilan quritishni o'z ichiga oldi. Olib qo'yiladigan tish protezining yuzasi quyidagi segmentlarga ajratildi: 1 va 2 segmentlar - frontal tishlar sohasi, 3 va 4 segmentlar - chaynash tishlari sohasi. Protezlarda gigiyena holati baholanganda 2-daraja (2-3 segmentlarning bo'yalishi), ya'ni gigiyenaning o'rtacha darajasi aniqlandi. Tishlarni tozalash metodikasini tuzatish tavsya etildi;

3-misol. Stomatologik klinik parodontologiya bo'limiga bemor D. og'iz bo'shlig'ida professional gigiyena choralarini o'tkazish maqsadida murojaat qildi, yoshi 65 da

Tishlar va olib qo'yiladigan ortopedik stomatologik konstruksiyalarda gigiyena holatini baholash uchun ma'lum qilingan usuldan foydalanildi.

Usul olib qo'yiladigan tish protezining chegarasi yuzasini chegarasi tish protezida qoziqtishlar o'rtasidan o'tkazilgan chiziq hisoblanuvchi frontal va yon segmentlarga ajratish, metilen sini aralashmasi bilan bo'yash, 5 soniya davomida suv bilan chayish va 10 soniya davomida havo oqimi bilan quritishni o'z ichiga oldi. Olib qo'yiladigan tish protezining yuzasi quyidagi segmentlarga ajratildi: 1 va 2 segmentlar - frontal tishlar sohasi, 3 va 4 segmentlar - chaynash tishlari sohasi. Protezlarda gigiyena holati baholanganda 3-daraja (1, 2, 3, 4 segmentlarning bo'yalishi), ya'ni gigiyenaning qoniqarsiz darajasi aniqlandi. Og'iz bo'shlig'inining gigiyenasi o'rganildi, og'iz bo'shlig'ida gigiyena vositalari va predmetlari tanlandi, gigiyena darajasi nazorat qilindi.

4-misol. Stomatologik klinik parodontologiya bo'limiga bemor E. og'iz bo'shlig'ida professional gigiyena choralarini o'tkazish maqsadida murojaat qildi, yoshi 64 da

Tishlar va olib qo'yiladigan ortopedik stomatologik konstruksiyalarda gigiyena holatini baholash uchun ma'lum qilingan usuldan foydalanildi.

Usul olib qo'yiladigan tish protezining chegarasi yuzasini chegarasi tish protezida qoziqtishlar o'rtasidan o'tkazilgan chiziq hisoblanuvchi frontal va yon segmentlarga ajratish, metilen sini aralashmasi bilan bo'yash, 5 soniya davomida suv bilan chayish va 10 soniya davomida havo oqimi bilan quritishni o'z ichiga oldi. Olib qo'yiladigan tish protezining yuzasi quyidagi segmentlarga ajratildi: 1 va 2 segmentlar - frontal tishlar sohasi, 3 va 4 segmentlar - chaynash tishlari sohasi. Protezlarda gigiyena holati baholanganda 4-daraja (olib qo'yiladigan tish protezlarining og'iz bo'shlig'i shilliq qavatiga yo'nalgan butun yuzasi bo'yaldi), ya'ni gigiyenaning keskin darajasi aniqlandi. Og'iz bo'shlig'ida gigiyena o'rgatildi, gigiyena darajasi nazorat qilindi, tishning qattiq to'qimalari hamda parodont to'qimalariga ta'sir qiluvchi davolash-profilaktika choralarini qo'llanildi.

Xulosa

Shunday qilib, keltirilgan misollar jarayonni sezilarli darajada yengillashtiruvchi hamda olib qo'yiladigan tish protezlariga ega shaxslarning og'iz bo'shlig'ida gigiyena holatini baholash sifatini oshiruvchi, gigiyena darajasini aniqlashning taklif qilingan usulini samaradorligini yaqqol namoyon qiladi.

Taklif qilinayotgan usulda o'tkazilgan sinovlar uning prototip-usul oldida ustunligini tasdiqladi: prototip-usuldan farqli ravishda gigiyena darajasining natijasi aniqroq va individual. Qo'shimcha hisoblarni talab etmaydigan usulning soddaligi, taklif etilayotgan usulni amaliy stomatologiya va ilmiy tadqiqotlarda qo'llanishini sezilarli darajada yengillashtiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аззамходжаев С.С. Клинико-функциональные и биохимические исследования побочного воздействия съемных зубных протезов на ткани протезного ложа, методы их профилактики: Дис. д-ра мед. наук.-Ташкент,1998.-225 с.
2. Большаков Г.В., Дымкова В.Н. Ортопедическое лечение при полной вторичной адентии. М., 2002. - 37 с.
3. Беликов Г.П., Лактионова Н.В., Мельникова В.М. Электрохимическая активация - медицинская технология будущего // Кремлевская медицина. Клинический вестник. - 2000. - №2.
4. Гаврилов Е.И. Ортопедическая стоматология. - М.: Медицина, 2001. - 559 с.
5. Зуфаров С.А., Ирсалиев Х.И., Байбеков И.М. Морфологические особенности взаимодействия пристеночной микрофлоры с эпителиоцитами слизистой оболочки альвеолярного гребня у больных с частичным отсутствием зубов // Стоматология. - 1991. -№6.-С.33-35.
6. Ирсалиев Х.И., Рахманов Х.Ш., Ханазаров Д.А. Функциональная морфология барьерно-защитных комплексов полости рта. Ташкент. Изд-во им. Абу Али ибн Сино. 2001.-338 с.
7. Ирсалиев Х.И. Особенности барьерно-защитной функции полости рта до и в процессе пользования зубными протезами: Дис.... д-ра мед. наук. - Ташкент, 1993. - 292 с.
8. Ирсалиев Х.И., Зиядуллаева Н.С. Гемодинамические показатели протезного ложа беззубой верхней челюсти и пути их коррекции // Stomatologiya, Ташкент. - 2006. -№3-4. - С. 43-45.
9. Ирсалиев Х.И., Рахматуллаев Ф.Т. ИК-спектроскопическое исследование новой базисной пластмассы "СОПАКР" // Stomatologiya.-Ташкент, 2006.-№3-
10. Alam M., Jagger R., Vowles R., Moran J. Comparative stain removal properties of four commercially available denture cleaning products: in vitro study // Int.J.Dental Hygiene. - 2011. - Vol.9, N1. - P.37-42.
11. Almstahl A., Wikstrom M. Microflora in oral ecosystems in subjects with hyposalivation due to medicines or of unknown origin // Oral Health Prev Dent. -2005.-Vol.3, N2. - P.67-76.
12. Ammann T.W., Bostanci N., Belibasakis G.N., Thurnheer T. Validation of a quantitative real-time PCR assay and comparison with fluorescence microscopy and selective agar plate counting for species-specific quantification of an in vitro subgingival biofilm mode 1 //J. Periodontal. Res. - 2013. - Vol.13. - P.517-526.

Kelib tushgan vaqt 09.09.2020